

Bugun "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ da OAV vakillari uchun press-tur bo'lib o'tdi

// 12.12.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bugun-dehqonobod-kaliy-zavodi-aj-da-oav-vakillari-uchun-pres>



Bugun "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ da OAV vakillari uchun press-tur bo'lib o'tdi.





Unda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining 30 ga yaqin OAV vakillari va blogerlar ishtirok etishdi. Avvalo, mehmonlarga zavod hududida texnik xavfsizlik qoidalari tushuntirilib, maxsus videorolik namoyish etildi. Jurnalistlar Dehqonobod kaliy zavodi AJ tarkibiy tuzilmalari faoliyati bilan yaqindan tanishishdi.

Shuningdek, ular kaliy o'g'iti 1-sexida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlariga guvoh bo'lishdi. Zavod markaziy laboratoriyasi faoliyatini ko'zdan kechirishdi.

Jurnalistlar va blogerlarga korxonada mas'ullari tomonidan mazkur yilda qilingan ishlar, erishilgan natijalar va kelgusi yilda amalga oshiriladigan rejalar yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berildi.

OAV vakillari o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga soha mutaxassislaridan javoblar olishdi.

O'zkimyosanoat AJ Matbuot xizmati